

2024 y. 01.07 dagi  
sonli Bosh kelishuvga  
ilova

## JISMONIY SHAXSLARGA KREDIT KONVEYERI ORQALI KREDIT AJRATILGANDA KREDIT MABLAG'LARINI QAYTMASLIK XATARIDAN SUG'URTALASH TO'G'RISIDA OMMAVIY OFERTA SHARTNOMASI

Toshkent.SH

2024 yil "01" Jul

Mazkur ommaviy oferta jismoniy shaxslarga «Agrobank» ATB va uning filiallari tomonidan hamda quyida nomi ko'rsatilgan sug'urta kompaniyasining kredit konveyeri orqali onlayn ajratiladigan kreditlarning ta'minoti sifatida sug'urtalash taklifi bo'lib hisoblanadi. (FKning 367-moddasiga muvofiq)

Fuqaro mazkur taklifda ko'zda tutilgan hatti-harakatlarni amalgga oshirgan (akseptlangan) paytdan boshlab, «**MY-INSURANCE**» AJ ST aksiyadorlik jamiyati (keyingi o'rirlarda sug'urtalovchi), sug'urta qildiruvchi va fuqaro (keyingi o'rirlarda - Qarz oluvchi)lar o'rtasida shartnomasini tuzilgan hisoblanadi hamda Qarz oluvchi mazkur ommaviy oferta shartnomasining barcha shartlarini istisno qilmagan holda so'zsiz qabul qilganligini anglatadi.

Ushbu sug'urta turi ixtiyoriy bo'lib, sug'urtalash sug'urta mukofotini to'lash orqali amalgga oshiriladi.

### 1. Ofertada qo'llaniladigan atamalar va ta'riflar:

**Sug'urtalovchi** – mazkur oferta shartlari bo'yicha sug'urta to'lovini amalgga oshirish majburiyatini qabul qiluvchi «**MY-INSURANCE**» AJ ST bo'lib, u o'z faoliyatini O'z. Res. qonun hujjaligiga muvofiq amalgga oshiradi.

**Sug'urta qildiruvchi** – mazkur ofertada taraf sifatida ishtirok etuvchi va sug'urtalovchi bilan aniq sug'urta munosabatlariga kirishuvchi hamda mulkiy naf oluvchi «Agrobank» ATB va uning filiallari, bank xizmatlarini ko'rsatuvchi markazlari va sotuv nuqtalari.

**Qarz oluvchi** – «Agrobank» ATB va uning filiallaridan kredit va mikroqarz olgan jismoniy shaxs.

**Kredit shartnomasi** – Sug'urta qildiruvchi va Qarz oluvchi o'rtasida qaytaruvchanlik, foizlilik, ta'minlanganlik va muddatlilik shartlari asosida pul mablag'larini ajratish maqsadida kredit konveyeri kredit maxsuloti orqali onlayn rasmiylashtiriladigan hujjat (ommaviy oferta);

**Sug'urta hodisasi** - sug'urta muddatida yuzaga kelgan, Qarz oluvchining kredit shartnomasi bo'yicha zimmasiga olgan majburiyatlarning bajarilmaganligi va kredit qarzdorligini kredit shartnomasida belgilangan shartlar va muddatlarda to'lay olmasligi.

**Sug'urta puli** – Sug'urta hodisasi sodir bo'lganda Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta qildiruvchiga to'lanadigan sug'urta qoplamasining eng yuqori miqdori.

**Sug'urta mukofoti** – mazkur ofertada belgilangan tartib va muddatlarda to'lanishi shart bo'lgan sug'urta uchun to'lov.

Sug'urta mukofoti Qarz oluvchi va/yoki qonunchilikda ta'qiqlanmagan shartlarda uchinchi shaxslar tomonidan to'lanishi mumkin.

**Sug'urta qoplamasi** – sug'urta hodisasi sodir bo'lganda Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta qildiruvchiga to'lanadigan pul mablag'lari.

**Sug'urta polisi** – Sug'urtalovchi tomonidan Sug'urta qildiruvchiga sug'urta mukofoti/sug'urta badalining to'liq to'langandan keyin beriladigan va Sug'urtalovchining mazkur Shartnomasi bo'yicha majburiyatlari kuchga kirganligini tasdiqlovchi hujjat.

**Oferta** (ommaviy oferta) – shartnomaning barcha asosiy shartlarini o'z ichiga olgan, taklif kiritayotgan shaxsning javob qaytargan har qanday shaxs bilan taklifda ko'rsatilgan shartlar asosida shartnomasi tuzishga bo'lgan xohish-irodasi bilinib turgan taklif.

**Kreditlarni sug'urta qilish bo'yicha ommaviy oferta** - sug'urtalashning barcha muhim shartlari va tartiblari o'zida aks ettirgan, cheklanmagan shaxslar bilan taklifda ko'rsatilgan shartlar asosida sug'urta shartnomasi tuzishga bo'lgan xohishini o'zida aks ettirgan taklif.

**Zarar** – Kredit qaytmaslik (14-klass) bo'yicha sug'urta hodisasi sodir bo'lganda Qarz

olvchining Sug‘urta qildiruvchi oldidagi o‘z majburiyatlarini to‘liq yoki qisman bajarmasligi natijasida Sug‘urta qildiruvchi ololmagan kreditning asosiy qarz mablag‘lari. Majburiyat bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi yuzasidan hisoblangan penya va jarimaga nisbatan hech qanday javobgarlik olib borilmaydi. Zarar miqdori shartnoma shartlariga asosan aniqlanadi.

**To‘lov sanasi** – Kredit shartnomasi (to‘lov grafigi) ga asosan Qarz oluvchi tomonidan Sug‘urta qildiruvchi oldidagi kredit bo‘yicha foiz qarzdorligini va asosiy qarzni to‘lash kuni yohud kredit qarzdorligini muddatidan oldin to‘liq undirish yuzasidan qaror chiqarilgan kun.

**Zarar sanasi** – Kutish davrining oxirgi kundan keyingi birinchi kun;

**Sug‘urta muddati** - sug‘urta mukofotini o‘z vaqtida to‘lash sharti bilan taraflar majburiyatini to‘liq bajarib bo‘ladigan muddat. Sug‘urtalovchi sug‘urta polisida ko‘rsatilgan ushbu davr va taraflar majburiyatlarini to‘liq bajargunga qadar berilgan qarzlarga nisbatan majburiyatlarga ega.

**Kutish davri** - sug‘urta hodisasi natijasida sodir bo‘lgan har qanday zararni Sug‘urtalovchi qoplashidan avval o‘tishi kerak bo‘lgan, to‘lov sanasi ertasidan e’tiboran hisoblanadigan ketma-ket kalendar kunlari soni.

1. Agar to‘lov sanasida kredit bo‘yicha vujudga kelgan qarzdorlikning 50 % dan ortiq qismi to‘langan bo‘lsa, sug‘urta shartnomasi bo‘yicha kutish davri «**90» kun** deb qabul qilinadi.

2. Agar to‘lov sanasida kredit bo‘yicha vujudga kelgan qarzdorlik umuman to‘lanmagan yoki 50 % dan kam qismi to‘langan bo‘lsa, sug‘urta shartnomasi bo‘yicha kutish davri «**60» kun** deb qabul qilinadi.

3. Kredit shartnomasida belgilangan muddat (shu jumladan grafik bo‘yicha) kredit qarzini sud tomonidan muddatidan oldin undirish belgilanganda – **Sud qarorining qonuniy kuchga kirish muddati**.

## 2. Sug‘urta shartnomasining predmeti

2.1. Mazkur oferta orqali sug‘urtalash shartlari va istisnolarga muvofiq, sug‘urta mukofotini sug‘urta shartnomasida ko‘rsatilgan miqdor va muddatda to‘lanilishi evaziga Sug‘urtalovchi tomonidan sug‘urta hodisalari bo‘yicha sug‘urta qoplamasini sug‘urta qildiruvchiga belgilangan tartibda va miqdorda qoplash majburiyatini olinadi.

2.2. Sug‘urta obyekti bo‘lib kreditni so‘ndirish bo‘yicha majburiyatlarini bajarmasligi oqibatida Sug‘urta qildiruvchining kredit shartnomasi bo‘yicha yuzaga kelgan ziyonlar bilan bog‘liq mulkiy manfaatlari hisoblanadi.

## 3. Sug‘urta hodisasi

### 3. Sug‘urta hodisasi

3.1.«Qarz oluvchi» (kredit oluvchi) tomonidan kredit shartnomasi to‘lov grafigiga asosan navbatdagi to‘loymi (grafik bo‘yicha kredit qarzini) va/yoki kredit qarzini qaytarishning oxirgi sanasida «Sug‘urta qildiruvchi» oldidagi majburiyatni bajarmasligi natijasida «Sug‘urta qildiruvchi»ning zarar ko‘rishi sug‘urta hodisasi hisoblanadi.

Sug‘urta tovoni miqdoriga kreditning so‘ndirilmagan asosiy qarzi va unga hisoblangan foiz to‘lovlari kiradi.

3.2. «Qarz oluvchi» (kredit oluvchi)dan kredit qarzini sud tomonidan muddatidan oldin undirish belgilanganda kredit qarzi (kredit asosiy qarzi va/yoki kredit foizi) to‘lanmaganligi sug‘urta hodisasi yuzaga kelishini bildiradi.

3.3. Sug‘urta tovoni miqdorini to‘lashda Sug‘urta qildiruvchi tomonidan kredit qarzini kredit qaytarilishi bo‘yicha majburiyatlar bajarilishining boshqa ta’milot shakllari (jumladan, garov, kafillik, kafolat, boshqa sug‘urta kompaniyalarining sug‘urta polislari va x.k) va qarzdorning mol-mulklaridan kredit qarzini sud tartibida undirish huquqini amalga oshirmsandan to‘lab beriladi.

Kutish davri o‘tgandan so‘ng sug‘urta tovoni to‘lab beriladi.

3.4. Mazkur bobda belgilangan shartlar bajarilishi yoki bajarilmasligidan qat’iy nazar Sug‘urtalovchi o‘zining huquqididan foydalangan holda sug‘urta tovonini to‘lab berish huquqiga ega.

## 4. Sug‘urta hodisasidan istisnolar

4.1. Sug‘urtalovchi quyidagi hollarda sug‘urta qoplamasini to‘lashni rad etishi mumkin:

4.1.1. zarar sug‘urta shartnomasida ko‘rsatilgan «sug‘urta hodisasi» oqibatida vujudga kelmagan bo‘lsa;

4.1.2. sug‘urta shartlariga ko‘ra, belgilangan muddatlarda murojaat qilinmagan bo‘lsa (FK 951-moddasi);

4.2. Kreditdan foydalanganlik uchun hisoblangan jarimalar, penyalar va kredit shartnomasini bajarmaganlik uchun Qarz oluvchi zimmasiga hisoblangan boshqa mablag‘lar, o‘zgalar mablag‘laridan foydalanganlik uchun foizlar, da’volar bo‘yicha qoplamlalar, to‘lanmagan pullar bo‘yicha qarzlarni undirish bilan bog‘liq sud harajatlarga nisbatan Sug‘urtalovchi hech qanday javobgarlik olib bormaydi.

4.3. Sug‘urtalovchi quyidagilar natijasida ko‘rilgan yoki yuzaga kelgan zararlar uchun majburiyatlarini o‘z zimmasiga olmaydi:

4.3.1. Qarz oluvchidan tashqari, har qanday uchinchi tomonning to‘lovga qobiliyatsizligi/moliyaviy majburiyatlarini bajarmasligi;

4.3.2. sug‘urtalovchi bilan yozma kelishmasdan sug‘urta shartnomasining amal qilishi davrida, kreditning to‘lov sanasini, muddatini, kredit shartnomasining boshqa shartlarini o‘zgartirilishi;

#### **4. Sug‘urta puli, sug‘urta mukofoti va sug‘urta polisini berishi tartibi**

4.1. Sug‘urta puli sug‘urta polisida ko‘rsatib o‘tiladi. Kredit qaytmaslik xavfi bo‘yicha sug‘urta pulining miqdori kredit summasining **120 foizi** miqdorida belgilanadi. **Mazkur miqdor sug‘urta tashkiloti orqali qarzdrligi qoplanayotgan mijozga ajratilgan kreditning asosiy tan va foiz qarzdorligining jami miqdoridan iborat**.

4.2. Sug‘urta mukofoti Qarz oluvchi tomonidan kredit ajratilishidan avval Sug‘urtalovchining hisob raqamiga to‘liq to‘lanishi shart.

4.3 Sug‘urta bo‘yicha ommaviy oferta shartnomasi mijoz tomonidan akseptlangandan so‘ng, jismoniy shaxslarga ajratiladigan **mikroqarz va kredit karta** kredit mablag‘larini qaytmaslik xataridan sug‘urtalash bo‘yicha sug‘urta mukofoti quyidagicha hisoblanadi:

a) sug‘urta polisi **24 (yigirma to‘rt)** oy muddatga taqdim etilganda sug‘urta pulidan **2,0 foiz** miqdorida;

b) sug‘urta polisi **36 (o‘ttiz olti)** oy muddatga taqdim etilganda sug‘urta pulidan **2,5 foiz** miqdorida;

v) sug‘urta polisi **48 (qirq sakkiz)** oy muddatga taqdim etilganda sug‘urta pulidan **3,0 foiz** miqdorida.

##### **3.2.1 Jismoniy shaxslarga ajratiladigan avtokreditni sug‘urtalashda sug‘urta mukofoti sug‘urta pulidan yillik 1,0 (bir) foiz miqdorida hisoblanadi.**

4.4. Sug‘urta polisi Qarz oluvchi tomonidan mazkur sug‘urta shartnomasi akseptlanib, Sug‘urta mukofoti to‘liq to‘langanidan hamda bank tomonidan taqdim etilgan ma’lumotga asosan taqdim etiladi.

Cug‘urta polisi Sug‘urtalovchining avtomatlashtirilgan axborot tizim orqali elektron ko‘rinishda ham taqdim etilishi mumkin. Avtomatlashtirilgan axborot tizimi (e-polis) orqali elektron ko‘rinishda taqdim etilgan sug‘urta polisi bilan qog‘oz ko‘rinishida tasdiqlangan sug‘urta polisi bir xil yuridik kuchga ega.

Sug‘urtalovchi tomonidan elektron sug‘urta polislar taqdim etilganidan so‘ng, Sug‘urta qildiruvchining talabiga ko‘ra, har oyning 10, 20, 30 sanalarida elektron polislarning qog‘oz ko‘rinishida ham taqdim etilishi mumkin.

4.5. Sug‘urta shartnomasi bo‘yicha barcha hisob-kitoblar so‘mda amalga oshiriladi.

4.6. Agar sug‘urta polisida sug‘urta puli va/yoki sug‘urta mukofoti ushbu sug‘urta shartnomasida belgilangan shartlardan farq qilsa, sug‘urta polisida ko‘rsatilgan miqdorlar qabul qilinadi.

#### **5. Sug‘urta shartnomasining kuchga kirishi va amal qilish muddati**

5.1. Mazkur ommaviy oferta Qarz oluvchi tomonidan akseptlanganidan sung kuchga kiradi va taraflar o‘z majburiyatlarini tuliq bajarilguniga qadar amalda bo‘ladi.

5.2. Sug‘urtalovchining Qarz oluvchi bo‘yicha sug‘urta qoplamasini to‘lash yuzasidan javobgarligi sug‘urta mukofoti to‘liq to‘langanidan so‘ng boshlanadi va mazkur Qarz oluvchi yuzasidan berilgan sug‘urta polisida ko‘rsatilgan sug‘urta muddati davomida amalda bo‘ladi. Sug‘urta mukofotining to‘liq to‘lanish sharti bilan sug‘urta muddatining boshlanishi va tugashi kreditning ajratish ya so‘ndirish muddati bilan mutanosib bo‘ladi.

5.3. Qarz oluvchi tomonidan ommaviy ofertani akseptlash quyidagilar hisoblanadi:

- shartnoma shartlarini Qarz oluvchi tomonidan boricha va to‘liqligicha qabul qilish;
- o‘zaro tushunmovchilik va nizolar vujudga kelganida taraflar shartnoma shartlariga tayanish huquqini beradi;
- shartnomadan dalil sifatida foydalanish imkoniyatini beradi;
- mazkur oferta va uning shartlari Fuqarolik kodeksining 367, 369, 370, 927-moddalariga asosan ishlab chiqilgan.

## **6. Sug‘urta shartnomasining bekor qilish tartibi**

6.1. Ushbu ommaviy Sug‘urta shartnomasi amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bekor qilinadi.

6.2. Qarz oluvchi kredit shartnomasi bo‘yicha o‘z majburiyatlarini muddatidan avval to‘liq bajarsa, Sug‘urta qildiruvchining/Qarz oluvchining (Sug‘urta qildiruvchining yozma roziligi bilan) talabiga ko‘ra, to‘langan sug‘urta mukofotining qolgan qismi Qarz oluvchiga qaytariladi.

6.3. Sug‘urta shartnomasi kredit ajratilmaganligi sababli, Sug‘urta qildiruvchi/Qarz oluvchining talabiga binoan bekor qilinsa, to‘langan sug‘urta mukofoti Qarz oluvchiga to‘liq qaytariladi.

6.4. Sug‘urta qildiruvchi va/yoki Qarz oluvchi sug‘urta shartnomasidan muddatidan oldin boshqa hollar sababli voz kechsa, Sug‘urtalovchiga to‘langan sug‘urta mukofoti qaytarilmaydi.

## **7. Tomonlarning huquq va majburiyatları**

### **7.1.Sug‘urta qildiruvchining huquqlari:**

7.1.1. Sug‘urtalovchidan sug‘urtalash shartlarini bajarilishini talab qilishi va sug‘urta shartlari bo‘yicha har qanday tushuntirishlar olishi.

7.1.2. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari, sug‘urtalash shartlarida ko‘rsatilgan boshqa huquqlardan foydalanishi.

### **7.2. Sug‘urta qildiruvchining majburiyatları:**

7.2.1. Sug‘urtalovchi talabiga ko‘ra, sug‘urta mukofotini hisoblash uchun zarur bo‘lgan barcha hujjatlarni taqdim etishi.

7.2.2. Sug‘urta mukofotini sug‘urtalash shartida belgilangan muddatlarda to‘lanishini nazorat qilishi.

7.2.3. Sug‘urta hodisa sodir bo‘lgan vaqtidan boshlab, 30 (o‘ttiz) ish kunidan kechiktirmasdan Sug‘urtalovchini bu haqida xabardor qilishi shart.

7.2.4. Sug‘urta xodisasi yuz berganida qarz oluvchidan yuzaga kelgan qarzdorlikni (asosiy qarz va/yoki foizlarni) undirish to‘g‘risida sudga da’vo ariza kiritib qarz oluvchidan qarzdorlikni undirish to‘g‘risida sud qarori chiqqanidan so‘ng sud qarori qonuniy kuchga kirganidan sug‘urtalovchiga sug‘urta tovonini to‘lab berish yuzasidan murojaat qilish.

7.2.5. Sug‘urtalovchiga sug‘urta hodisasi sodir bo‘lishi tavsilotlarini o‘rganishda, Qarz oluvchidan qarzni subrogatsiya tartibida undirishda ko‘maklashishi, xususan, Sug‘urtalovchining talabiga muvofiq, Qarz oluvchi haqidagi ma’lumotlarni berishi, to‘lov muddati o‘tib ketgan qarzlarni undirish uchun zarur bo‘lgan barcha hujjatlarni taqdim etishi.

7.2.6. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida va mazkur sug‘urta shartnomasida ko‘rsatilgan boshqa majburiyatlarni bajarishi shart.

### **7.3. Sug‘urtalovchining huquqlari:**

7.3.1. Quyidagi hollarda sug‘urta qoplamasini to‘lashni rad etishi:

a) agar Sug‘urtalovchiga sug‘urta qoplamasini olish uchun zarur hujjatlar hamda sug‘urta hodisasi tavsifini aniqlash uchun barcha zarur ma’lumotlar taqdim etilmagan bo‘lsa;

b) sug‘urta polisi amal qilish davrida sug‘urta qoplamasini olish talabi bilan murojaat qilmasa.

7.3.2. Sug‘urta qaltisligi sodir bo‘lganligi haqida xabar qilingan kundan boshlab «15 kalendar kuni» mobaynida zarur hujjatlar taqdim etilmaganda sug‘urta da’vo ishini keyingi ish yurituvini to‘xtatib turishi.

7.3.3. Agar Sug‘urtalovchi tomonidan Sug‘urta qildiruvchiga sug‘urta tovoni to‘lab berilsa, Sug‘urta qildiruvchi va Qarz oluvchi o‘rtasida tuzilgan kredit shartnomasida ko‘rsatilgan, qarz oluvchining O‘zbekiston Respublikasi hududidagi barcha bank muassasalarida har qanday valyutada va har qanday maqsadlar uchun ochilgan plastik karta(lar)sidan hamda omonat hisobvaraqlaridagi pul mablag‘laridan akseptsiz avtomatik ravishda yechib olish to‘g‘risidagi Sug‘urta qildiruvchining da‘vo qilish huquqi, to‘langan tovon miqdorida Sug‘urtalovchiga o‘tadi.

7.3.4. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjalari va Sug‘urta shartnomasida nazarda tutilgan boshqa huquqlardan foydalanishi.

#### **7.4. Sug‘urtalovchining majburiyatlari:**

7.4.1. Sug‘urta polisini sug‘urtalash shartlarida belgilangan muddatlarda berishi.

7.4.2. Sug‘urtalash shartlariga muvofiq, sug‘urta qoplamasini to‘lovini o‘z vaqtida amalga oshirish.

7.4.3. Sug‘urta qildiruvchini va Qarz oluvchini sug‘urta qoplamasini to‘lovi rad etilganligi to‘g‘risida ular sug‘urta qoplamasini olish talabi bilan murojaat qilgandan keyin 15 (o‘n besh) kun ichida rad etish sabablari ko‘rsatilgan holda yozma xabardor qilishi, unda rad javobining asoslangan sabablari ko‘rsatilgan bo‘lishi shart.

7.4.4. Sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganda sug‘urta da‘vosini ko‘rib chiqish uchun zarur bo‘lgan barcha hujjalarni olingandan keyin va Sug‘urta hodisasi to‘g‘risidagi dalolatnomasi imzolanganidan keyin 15 (o‘n besh) bank kuni ichida sug‘urta qoplamasini to‘lovini amalga oshirishi.

7.4.5. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjalari va Sug‘urta shartnomasida nazarda tutilgan boshqa majburiyatlarni ham bajarishi.

### **8. Sug‘urta qoplamasini to‘lash tartibi**

8.1. Sug‘urta shartnomasini shartlariga ko‘ra, sug‘urta hodisasi sodir bo‘lsa, Sug‘urta hodisasi to‘g‘risidagi dalolatnomasi imzolanganidan keyin 15 (o‘n besh) bank kuni ichida sug‘urta qoplamlari qoplab beriladi.

8.2. Sug‘urta qoplamasini quyidagi tartibda qoplab beriladi:

a) Sug‘urtalovchi Qarz oluvchining foiz qarzdorligi va kreditdan qolgan jami asosiy qarz va foiz qoldig‘ini sug‘urta puli doirasida to‘lab beradi. Kredit mablag‘larini o‘z vaqtida to‘lanmaganligi natijasida hisoblangan penya, davlat boji, jarima va boshqa harajatlar bo‘yicha javobgarlik olib borilmaydi.

b) Qarz oluvchining vafot etganligi, muomala layoqatini butunlay yo‘qotganligi sababli vujudga kelgan qarzdorliklar bo‘yicha Sug‘urtalovchi kutish davri o‘tishini kutmasdan sug‘urta qoplamasini to‘lab berish majburiyatini oldadi.

8.3. Agar Sug‘urta qildiruvchida Sug‘urtalovchini 7.2.3-bandda ko‘rsatilgan muddatlarda sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganligi haqida xabardor qilish imkoniyati bo‘lmasa, Sug‘urtalovchi da‘voni O‘zR qonun hujjalari o‘rnatilgan da‘vo qilish muddatlari ichida qabul qilish majburiyatini oladi. Ammo Sug‘urtalovchi o‘z vaqtida xabar qilish imkoniyati haqiqatdan Sug‘urta qildiruvchi va/yoki Qarz oluvchida mavjud bo‘lmaganligining isbotini talab qilish huquqiga ega.

Sug‘urtalovchi yuqoridagi barcha hujjalarni talab qilmasdan ham sug‘urta da‘vo ishini ko‘rib chiqib, sug‘urta qoplamasini to‘lash huquqiga ega.

8.5. Sug‘urtalovchi sug‘urta hodisasi sodir bo‘lganligini tan olgan taqdirda Sug‘urtalovchi 3 (uch) bank ish kuni ichida Sug‘urta hodisasi to‘g‘risidagi dalolatnomani tuzadi. Unda olingen barcha ma‘lumotlar ko‘rsatiladi va to‘lanishi lozim bo‘lgan sug‘urta qoplamasining miqdori belgilanadi.

8.6. Sug‘urta hodisasi to‘g‘risidagi dalolatnomasi to‘liq imzolanganidan so‘ng 15 (o‘n besh) bank kuni ichida sug‘urta qoplamasini to‘lanadi.

8.7. Sug‘urta qiluvchi qarz oluvchining vafot etganligi, jazoni ijro etish muassasasida jazoni o‘tayotganligi, muomala layoqatini butunlay yo‘qotganligi sababli vujudga kelgan qarzdorliklar bo‘yicha Sug‘urtalovchi kutish davri o‘tishini kutmasdan sug‘urta qoplamasini to‘lab beradi.

8.8. Sug‘urta qiluvchi kredit shartnomasida belgilangan muddat (shu jumladan grafik bo‘yicha) tugamasidan kredit qarzini sud tomonidan muddatidan oldin undirish belgilanganda sud qarorining qonuniy kuchga kirganidan so‘ng 10 (o‘n) kunlik muddat ichida sug‘urta qoplamasini to‘lab beradi.

8.7. Kredit qaytmaslik bo‘yicha Zarar qoplangandan keyin, Sug‘urtalovchi Qarz oluvchiga yoki amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq, har qanday boshqa shaxs va tashkilotga nisbatan regress bo‘yicha barcha huquqlarga ega bo‘ladi.

Sug‘urta qildiruvchi barcha xujjatlarni rasmiylashtirishi va sug‘urtalovchiga taqdim etishi hamda ushbu huquqlarni sug‘urtalovchiga beradi.

Qarz oluvchining vafot etganligi, birinchi guruh nogironi bo‘lib qolganligi sababli vujudga kelgan qarzdorlik qoplanganda sug‘urtalovchi tomonidan qarz oluvchilarga nisbatan huquqiy vorislikká yo‘l qo‘ylganda regress huquqi qo‘llaniladi.

8.8. Sug‘urtalovchi tomonidan sug‘urta qoplamsi qoplab berilganidan keyin, Sug‘urta qildiruvchi zararni o‘rnini qoplash uchun qo‘lga kiritgan har qanday manbalardan olingan pul mablag‘larini, Qarz oluvchi to‘lov jadvaliga ko‘ra to‘lanishi lozim bo‘lgan to‘lovlari (foiz qarzdorlik, asosiy qarzdorlik)ni sug‘urta qoplamsi to‘langanidan keyin amalga oshirsa, Sug‘urta qildiruvchi ushbu to‘lovlarni sug‘urta qoplamsi doirasida sug‘urtalovchiga qaytarib berishi shart.

## 9. Tomonlarning javobgarligi

9.1. Tomonlar o‘z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq javobgardirlar.

9.2. Sug‘urta shartnomasi bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmasliklari yengib bo‘lmas kuch (fors major) ta’sirida kelib chiqqan bo‘lsa, tomonlar javobgarlikdan ozod bo‘ladilar. Yengib bo‘lmas kuch ta’sirida bo‘lgan tomon boshqa tomonni bunday shart-sharoit yuzaga kelganligi va qancha davom etishi mumkinligi to‘g‘risida xabardor qilishi shart.

## 10. Korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish

10.1. Mazkur Ofertaga amal qilish hamda unda belgilangan vazifalarni amalga oshirish davomida bankning “Korruptsiyaga qarshi kurashish Siyosati” hamda “Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bo‘yicha Nizom” talablariga amal qilinishi lozim.

10.2. Yuzaga kelgan, shuningdek, yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan korruption havflar va manfaatlar to‘qnashuvi holatlari yuzasidan bankning Komplayens nazorat boshqarmasiga og‘zaki yoki yozma shaklda murojaat qilinishi lozim.

10.3. Sug‘urta shartnomalar bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar, har qanday noqonuniy ustunlik yoki boshqa imtiyozlarni olish maqsadida, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki vakillari ushbu shaxslarning harakatlari yoki qarorlariga ta’sir qilish uchun, har qanday shaxslarga haq to‘lamaydilar, to‘lashni taklif qilmaydilar va hech qanday pul mablag‘lari yoki qimmatbaho buyumlarni to‘lashga yo‘l qo‘ymaydilar.

10.4. Sug‘urta shartnomalar bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki vakillari, amaldagi qonunchilikka muvofiq pora berish va olish, tijoratda pora evaziga og‘dirib olish, shuningdek jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legalallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilik talablarini va xalqaro hujjatlar talablarini buzadigan harakatlarni sodir etmaslik majburiyatini oladilar.

10.5. Agar Tomonlardan biri ushbu bandning har qanday qoidalaring buzilishi sodir bo‘lgan yoki sodir bo‘lishi mumkin deb gumon qilsa, tegishli tomon boshqa tomonni yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladi. Yozma bildirishnomada tomon boshqa tomon, uning xodimlari yoki vositachilarini tomonidan ushbu bandning har qanday qoidalari buzilishi sodir bo‘lgan yoki sodir bo‘lishi mumkin bo‘lganligini ishonchli tasdiqlovchi yoki ishontirish uchun asos bo‘ladigan faktlarga havola qilishi yoki materiallarni taqdim qilishi kerak.

10.6. Agar Tomonlardan biri ushbu band qoidalaring buzsa, boshqa Tomon shartnomani bir tomonlama bekor qilish to‘g‘risida yozma bildirishnomasi yuborish orqali shartnomani suddan tashqari bir tomonlama tartibda bekor qilishga haqli.

## **11. Nizolarni hal etish tartibi**

Sug‘urta shartnomasidan kelib chiquvchi yoki u bilan bog‘liq bahslar, kelishmovchiliklar taraflar o‘rtasida kelishuv yo‘li bilan hal etiladi. Taraflar o‘rtasidagi nizolar kelishuv yo‘li bilan hal etilmaganda, nizolar amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda vakolatli sudlarda ko‘rib chiqiladi.

## **12. Boshqa shartlar**

12.1. Mazkur shartnomaning bir yoki bir nechta sharti (bandlari) qonunga yoki sud qaroriga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotsa, shartnomaning boshqa shartlari bekor bo‘lishiga asos bo‘lmaydi.

12.2. Tomonlarning ushbu sug‘urta shartnomasida bayon etilmagan o‘zaro munosabatlari O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

## **13. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI**

### **SUG‘URTALOVCHI**

Nomi: «**MY-INSURANCE**»

Yuridik manzili: O‘zbekiston Respublikasi,  
Toshkent shahri, Mirobod tumani kichik Mirobod  
ko'chasi 95 uy

Rekvizitlar:

h/r: 2020 8000 1047 8606 6001

TIF Milliy bank “Sayoxat” BXМ

MFO: 00450, STIR: 207 002 342

tel: 71 205 19 19

E-mail: [info@myinsurance.uz](mailto:info@myinsurance.uz)

Web : [www.myinsurance.uz](http://www.myinsurance.uz)

### **MIJOZ**

F.I.SH.

Pasport seriya va raqami

JSHSHIR



